

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI  
FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.  
ILMIY  
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi  
Yilda 6 marta chiqadi

6-2024

**НАУЧНЫЙ  
ВЕСТНИК.  
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года  
Выходит 6 раз в год

**T.Y.Bakirov, N.Z.Xolmatova**

Ehtimoliy-statistik masalalarni yechishda raqamli texnologiyalarni qo'llash imkoniyatlari ..... 8

## FIZIKA-TEXNIKA

**A.B.Yo'lichev, I.R.Asqarov, K.Sh.Djamolov**

Research on the impact of mixed feed on the development of broiler chickens ..... 14

**Sh.Sh.Shuxratov, B.A.Askarova**

Integratsion yondashuv asosida talabalarning transversal kompetensiyalarini rivojlantirish ..... 19

**M.M.Sobirov**

Yer sirtidan qaytgan quyosh nurlanish oqimini atmosferaning nurlanish maydoniga ta'siri ..... 24

**Sh.Sh.Shuxratov, G.B.Butayeva**

Transformatsion yondashuv asosida bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarining metodik kompetentligini rivojlantirish ..... 30

**K.Абдулвахидов, Ч.Ли, С.Отажонов, Н.Юнусов**

Структура, электрофизические, оптические и магнитные свойства композитов

(1-x)PbFe<sub>12</sub>O<sub>19</sub>-xPbTiO<sub>3</sub> ..... 35**M.M.Sobirov**

Bir kun davomida yer sirtiga tushayotgan quyosh nurlanish oqimi energiyasini hisoblash ..... 42

## KIMYO

**F.B.Eshqurbanov, E.R.Safarova**

Diglisidiltiokarbamid va melamin asosidagi ionitning sorbsiya izotermasi tadqiqoti ..... 48

**I.R.Asqarov, M.A.Marupova, Y.X.Nazarova**

"Asprulans" oziq- ovqat qo'shilmasining biologik faolligini o'rganish ..... 54

**C.А.Кодиров, М.Ю.Исмоилов**

Водопоглощение и водостойкость гидроизоляционного материала гидроизол-к ..... 59

**F.B.Eshqurbanov, A.P.Hamidov**

Tabiiy guliof fosforit xomashyosining kimyoviy tarkibini aniqlash usullari ..... 64

**A.Sh.Shukurov, M.Y.Ismoilov**

Surkov moyi kompozitsiyasining fizik-kimyoviy xususiyatlarini aniqlash usullari ..... 69

**M.B.Xolboyeva, Z.A.Smanova, D.A.Gafurova, M.G.Yulchiyeva, M.R.O'ralova**

Immobilangan nitrozo-r-tuzi yordamida Fe (III) ionini aniqlashning samarali va seliktiv usulini ishlab chiqish ..... 74

**M.G.Yulchiyeva, X.X.Turayev, Sh.A.Kasimov, M.B.Xolboyeva, M.J.Abduvaliyeva, N.B.Choriyeva**

Karbamid, formaldegid va difenilkarbazon asosida sintez qilingan sorbenta

Cu (II) Zn (II) va Ni (II) ionlarining sorbsiyasi va tadqiqoti ..... 80

**Z.А.Акназарова, М.А.Ахмадалиев**

Сравнительные характеристики химического состава водоемов чорток и киркидон ..... 86

**S.A.Mamatkulova, N.Sh.G'ulomova, I.R.Askarov**

"Asyetis" biologik faol moddasining o'tkir zaharlilik darajasini aniqlash ..... 90

**I.I.Abdujalilov, D.A.Eshtursunov, S.G.Egambergenova, A.Inxonova, D.J.Bekchanov**

Polimer yuzasida metal oksidi nanozarrachalarini zol-gel usuli yordamida sintez qilish va ularning xossalari ..... 93

**S.Sh.Do'saliyeva, V.U.Xo'jayev**

Allium karatavense o'simligi takibidagi alkaloidlarning sifat taxlili ..... 101

**D.Abduvokhidov, M.Niyozaliev, Z.Toshpo'latova, Kh.Toshov, Sh.Sh.Turgunboev, J.Razzokov**

Membrane modification in the formation of channels, channel size, external conditions, and the role of mechanical factors ..... 104

**X.N.Saminov, O.M.Nazarov**

Anor mevasining mineral va flavonoid tarkibini o'rganish ..... 110



УО'К: 546.21

## TABIIY GULIOB FOSFORIT XOMASHYOSINING KIMYOVİY TARKİBİNİ ANIQLASH USULLARI

### МЕТОДЫ ОПРЕДЕЛЕНИЯ ХИМИЧЕСКОГО СОСТАВА ЕСТЕСТВЕННОГО ГУЛИОБ ФОСФОРИТА

### METHODS FOR DETERMINING THE CHEMICAL COMPOSITION OF NATURAL GULIOB PHOSPHORITE RAW MATERIAL

**Eshqurbanov Furqat Bozorovich<sup>1</sup>** 

<sup>1</sup>Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, kimyo fanlari doktori, professor

**Hamidov Azim Panji o'g'li<sup>2</sup>** 

<sup>2</sup>Termiz davlat muhandislik va agrotexnologiyalar universiteti, assistent

#### *Annotatsiya*

*Ushbu maqolada Surxondaryo viloyati Sarosiyoy tumanida joylashgan Guliob fosforitini tarkibi fizik-kimyoviy tahlil asosida o'r ganilgan. Undagi P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> umumi yiqdori 4,13 dan 22,30 % gachani tashkil etishi laboratoriya sharoitida fotokolorometrik, rentgenometrik va ionometrik usullar yordamida aniqlanib tahlil qilindi. Uning tarkibida talab darajasida P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> mavjud bo'lmasa xam ularni turli xil tarkibida mineral moddalar mavjud bo'lgan xomashyolar bilan modifikatsiyalab, yangi aralash turdag'i o'g'it olish mumkin.*

#### *Аннотация*

В данной статье изучен состав гулиобского фосфорита, расположенного в Сарисийском районе области Сурхандарья, на основе физико-химического анализа. Общая масса P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> в минерале была определена в диапазоне от 4,13% до 22,30% с использованием фотоколориметрических, рентгенометрических и ионометрических методов в лабораторных условиях. Хотя содержание P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> не соответствует требуемому уровню, его можно модифицировать с использованием сырья с различным минеральным составом для получения новых смешанных удобрений.

#### *Abstract*

*This article examines the composition of Guliob phosphorite located in the Sarosiyoy district of Surxondaryo region based on physical and chemical analysis. The total amount of P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> in the mineral was determined to range from 4.13% to 22.30% using photocolorimetric, X-ray, and ionometric methods in laboratory conditions. Although the content of P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> does not meet the required level, it is possible to modify it with raw materials containing various mineral compositions to obtain new blended fertilizers.*

**Kalit so'zlar:** Fosfor, gulioob, tahlil, Qizilqum fosforiti, element analiz, laboratoriya, fotokolorometrik, rentgenometrik, ionometrik, piklar, yutilish chizig'i.

**Ключевые слова:** Фосфор, гулиоб, анализ, фосфорит Кызылкум, элементный анализ, лаборатория, фотоколориметрия, рентгенометрия, ионометрия, пики, кривая поглощения.

**Key words:** Phosphorus, gulioob, analysis, Qizilqum phosphorite, element analysis, laboratory, photocolorimetric, X-ray, ionometric, peaks, absorption curve.

#### **KIRISH**

Tabiiy fosforit rudalari tibbiyot, farmatsevtika, metallurgiya, harbiy ishlardan, qishloq xo'jaligi va boshqa yo'naliishlarda keng qo'llaniladigan fosfor va uning hosilalarini olish uchun zarur bo'lgan tog'-kimyoviy xom ashyosining eng muhim turi hisoblanadi. Ammo, bugungi kunda tabiiy fosforit rudalaridan eng ko'p foydalani layotgan soha bu qishloq xo'jaligi bo'lib qolmoqda. Buning eng asosiy sabablaridan esa tabiiy fosforitlar tarkibidagi fosfor elementi tuproq unumdorligini oshirishda va qishloq xo'jaligi ekinlarining sifati hamda hosildorligini oshirishda eng muhim ozuqa elementi sanaladi. Bundan tashqari bugungi kunda parrandachilik va baliqchilik sohasida yuqqori

**KIMYO**

mahsuldorlikka erishish uchun ham ozuqaviy fosforli qo'shimchalar ishlatalish zarur ahamiyat kasb etmoqda. O'zlashuvchan fosfor ozuqa elementisiz intensiv yuqori mahsuldor dehqonchilik va chorvachilikni tasavvur qilish qiyin. Ularni ishlab chiqarishga qazib olingen tabiiy fosforit rudasining atigi 5-7% ga yaqini sarflanadi.

Tabiiy fosforit rudalarining zahiralari 60 dan ortiq mamlakatlarda 63067,4 mln. tonna P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> aniqlangan shundan 57 807,4 mln. tonnasini fosforit hamda 5260 mln. tonnasini apatit rudalari tashkil etadi. Marakosh, AQSH, Xitoy, Rossiya va Qozog'iston davlatlarida 49493 mln. tonna P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> mavjud bo'lib, bu dunyo zahiralarining deyarli 80% ga teng ko'rsatgichdir.

Respublikamizda fosforli o'g'itlar ishlab chiqarish uchun o'zining tabiiy fosforitlar zahiralariga ega. Tabiiy fosforit konlari Navoiy, Farg'ona, Surxondaryo, Toshkent, Buxoro, Xorazm viloyatlarida va Qoraqalpog'iston Respublikasida mavjud. Ammo, ushbu mavjud bo'lgan tabiiy fosforit rudalaridan o'g'it ishlab chiqarish nuqtai nazaridan eng istiqbolli fosforit koni bu Markaziy Qizilqum hududida joylashgan.

Qizilqum tabiiy fosforit koni havzasi taxminan 65 ming km<sup>2</sup> maydonni egallaydi. Agar sanoat uchun tabiiy fosforit rudalari ushbu maydonning atigi 5% ni egallaydi deb faraz qilsak, ular qatlamlarining o'rtacha umumiyligi 2,5 m bo'lgan tabiiy fosforit rudalarining taxminiyl zahiralari 16,25 mlrd. tonnani yoki 1,95 mlrd. tonna P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> ni (o'rtacha P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> miqdori 12% olinganda) tashkil etadi.

Surxondaryo viloyati Sariosiyo tumanida joylashgan Gulio ob past navli tabiiy fosforit mineralining o'r ganilgan konturlari 30 km uzunlikka va 60 m chuqurlikka cho'zilgan. Uning tarkibi asosan dallit va diadoxit minerallaridan iborat. Gulio ob past navli tabiiy fosforit rudasida ushbu mineralarning umumiyligi miqdori 31% ni tashkil etadi. Yuqorida keltirilgan tabiiy fosforit mineral rudalari turlariga ko'ra Gulio ob fosforiti donador granulali turiga kiradi.

Gulio ob tabiiy fosforit konining miqdori 551 ming tonna P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> ni tashkil qiladi. Bu granulali fosforli mineralarning rangi qora va jigar rangdir. Undagi P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> umumiyligi miqdori 4,13 dan 22,30 % gachani tashkil etadi.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Bundan tashqari fosforit minerali tarkibidagi diadoxit mineralida oz miqdorda MgO, CO<sub>2</sub>, F<sub>2</sub>, SO<sub>3</sub> va gips mavjud. Fosforit mineral rудаси tarkibida shuningdek, temir, alyuminiy, magniy, kaliy, marganets, nikel, mis, volfram, vanadiy va boshqa mikroelementlar ham uchraydi va xom ashyoni fosforitga aylantirish uchun qayta ishlov berilganda ular o'g'it tarkibida oz miqdorda bo'lsa ham qoladi.

O'rganish uchun Gulio ob fosfaritini maydalash uchun maydalash jarayonida og'irligi 1,0 kg gacha bo'lgan kichik namunalarni maydalashda mo'ljallangan DISC RUBBER ID 65 markali maydalovchi qurilmadan foydalanilib fosfarit minerali maydalandi. Maydalangan mineral eleklar to'plami yordamida (+0,5-0,05 mm) fraksiyalarga ajratildi.

Maydalangan Gulob fosfariti tarkibini aniqlash uchun minerallardan namuna olish qoidalarida ko'rsatilgan yarim doira usulidan foydalanib olingen namunalardan foydalanildi. Ajratib olingen har xil o'lchamdagil xom ashyolarning kimyoviy tarkiblari va fizik-kimyoviy xossalari ma'lum usullar asosida aniqlandi.

Fotokolorimetrik usul bilan Gulio ob fosforiti tarkibidagi P2O5 ning umumiyligi, o'zlashuvchan shakllari  $\lambda = 450$  to'lqin uzunligi bo'yicha KFK-3 fotokolorimetrida amalga oshirildi. Bu usulning hatolik darajasi  $\pm 1\%$  ni tashkil etadi.

Ionometrik usulda xom ashyo va mahsulotlardagi fтор elementining miqdorlari aniqlandi.


Namunalar tarkibidagi namlikning miqdori aniqlash esa 110-115°C da o'zgarmas og'irligacha quritish usuli orqali amalga oshirildi.

Piknometrik analiz usuli orqali fosfarit namunalarining zinchliklari aniqlandi.

**NATIJALAR VA MUHOKAMA**

Dastlabki xom ashyo mineralida o'tkazilgan element analizi rentgenografik tadqiqotlar natijalariga ko'ra ham past navli tabiiy Gulio ob fosforit minerali tarkibida qishloq xo'jaligi ekinlari uchun foydali ozuqa elementlari mavjudligini tasdiqlovchi qoyalari (piki) ko'ringani aniqlangan.

Bu natijalardan Gulio ob fosfaritlaridan foydalanish orqali yangicha bo'lgan yani tarkibida rux, kaliy, kalsiy, nikel mis va shunga o'xshash o'simlik va hayvonlar uchun yangicha ozuqaviy mahsulotlar olish imkonini beradi.



NEX CG

Rigaku


**1-rasm. Past navli Gulioib fosforit mineralining element analizi asosida olingan rentgenogramma tasviri.**

1	Cl	0.0181	mass%	0.0002	0.0002	0.0005
2	Br	0.0004	mass%	<0.0001	<0.0001	0.0002
3	MgO	1.63	mass%	0.0226	0.0345	0.104
4	Al <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	6.83	mass%	0.0219	0.0229	0.0686
5	SiO <sub>2</sub>	42.9	mass%	0.0366	0.0680	0.204
6	P <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	6.05	mass%	0.0097	0.0042	0.0126
7	SO <sub>3</sub>	1.23	mass%	0.0033	0.0008	0.0024
8	K <sub>2</sub> O	1.11	mass%	0.0074	0.0035	0.0104
9	CaO	21.9	mass%	0.0330	0.0047	0.0142
10	TiO <sub>2</sub>	0.306	mass%	0.0030	0.0025	0.0075
11	V <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	0.0351	mass%	0.0012	0.0027	0.0080
12	Cr <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	0.0225	mass%	0.0006	0.0010	0.0029
13	MnO	0.0651	mass%	0.0014	0.0022	0.0065
14	Fe <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	2.18	mass%	0.0044	0.0020	0.0060
15	NiO	0.0042	mass%	0.0002	0.0004	0.0012
16	CuO	0.0050	mass%	0.0002	0.0001	0.0004
17	ZnO	0.0125	mass%	0.0002	<0.0001	0.0002
18	Ga <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	0.0018	mass%	<0.0001	0.0001	0.0004
19	As <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	0.0011	mass%	<0.0001	0.0002	0.0005
20	Rb <sub>2</sub> O	0.0063	mass%	<0.0001	<0.0001	0.0002
21	SrO	0.0717	mass%	0.0003	0.0002	0.0006
22	Y <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	0.0064	mass%	<0.0001	0.0001	0.0004
23	ZrO <sub>2</sub>	0.190	mass%	0.0014	0.0005	0.0015
24	Nb <sub>2</sub> O <sub>5</sub>	0.0019	mass%	0.0002	0.0005	0.0014
25	Ag <sub>2</sub> O	0.0007	mass%	<0.0001	0.0002	0.0005
26	SnO <sub>2</sub>	0.0022	mass%	0.0002	0.0003	0.0010
27	BaO	0.0122	mass%	0.0007	0.0016	0.0047
28	PbO	0.0019	mass%	<0.0001	0.0002	0.0005
29	Eu <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	0.0396	mass%	0.0028	0.0073	0.0220
30	Dy <sub>2</sub> O <sub>3</sub>	(0.0150)	mass%	0.0021	0.0061	0.0182
31	U <sub>3</sub> O <sub>8</sub>	0.0027	mass%	0.0001	0.0002	0.0007

**1.2-rasm. Past navli Gulioib fosforit minerali tarkibidagi aniqlangan makro va mikroelementlarning miqdori.**

Tarkibida o'simliklarning o'sib rivojlanishi uchun kerak bo'ladigan ozuqaviy makro va mikroelementlardan massa bo'yicha P<sub>2</sub>O<sub>5</sub>-6,06%, CaO-21,9%, SO<sub>3</sub>-1,23%, K<sub>2</sub>O-1,11%, MgO-1,63% va boshqa foydali elementlari bo'lgan Gulioib tabiiy fosforiti o'g'it olishda qo'llanilsa bo'ladi ya'ni, uni ekologik jihatdan xavfsiz va ancha qimmat bo'lgan kimyoviy faollashtirish shart emas.

## KIMYO



No.	Peak	Intensity	Corr. Intensity	Base (H)	Base (L)	Area	Corr. Area
1	473,54	7,646	6,544	648,11	399,28	238,938	30,2
2	707,91	13,98	0,303	721,41	649,07	60,769	0,509
3	786,99	10,419	3,63	835,21	722,37	102,653	6,471
4	1083,08	1,654	9,285	1303,94	836,18	597,663	143,846
5	1438,96	4,012	4,396	1587,48	1304,9	337,699	33,966
6	1637,64	8,236	0,871	1777,48	1588,45	196,512	3,01
7	1790,98	10,287	0,039	1844,99	1782,3	61,666	0,087
8	1880,68	10,46	0,13	1958,8	1845,96	110,142	0,257
9	1962,65	10,701	0	1964,58	1959,76	4,68	0
10	1969,41	10,701	0	1970,37	1965,55	4,68	0
11	1977,12	10,7	0,011	2080,32	1970,37	106,364	0,05
12	2163,26	10,826	0,011	2185,44	2081,28	100,495	0,025
13	2242,34	10,806	0,032	2286,71	2186,41	96,87	0,067
14	2360,97	10,558	0,223	2415,95	2287,67	124,572	0,532
15	2518,18	10,383	0,226	2569,29	2416,91	148,823	0,547
16	2790,15	10,223	0,007	2794,97	2570,26	220,866	0,039
17	2931,93	9,106	0,69	3004,26	2795,94	212,006	2,714
18	3410,29	6,666	1,546	3602,22	3005,22	659,236	20,604
19	3744,96	9,181	0,003	3746,89	3733,38	14	0,001
20	3755,57	9,176	0,003	3760,39	3751,71	9,004	0,001
21	3863,58	9,064	0,001	3866,48	3861,66	5,028	0
22	3873,23	9,059	0,009	3885,77	3867,44	19,105	0,003

**2-rasm. Past navli Gulioib fosforiti tabiiy mineralining IQ-spektroskopiya bo'yicha o'tkazilgan analiz tahlili asosida olingan tasviri.**

IQ-spektroskopiya analiz tadqiqotlarida olingan natijalarga ko'ra, tabiiy Gulioib fosforitining mineral tarkibi asosan dallit ( $d = 1,608\text{--}13,98$  E qiymati dallit mineraliga tegishli) va diadoxit ( $d = 1,654\text{--}9,064$  E qiymati diaxodit mineraliga tegishli) mineralallaridan iborat ekanligi aniqlandi.

Dallit va diaxodit mineralallarining kimyoviy formulasini quyidagicha ifodalash mumkin:  
 $3\text{Ca}_3(\text{PO}_4)_2 \cdot n\text{Ca}(\text{CO}_3, \text{F}_2, \text{O}) \cdot x\text{H}_2\text{O}$  va  $2\text{Fe}_2\text{O}_3 \cdot \text{P}_2\text{O}_5 \cdot 2\text{SO}_3 \cdot x\text{H}_2\text{O}$ .

Gulioib past navli tabiiy fosforitining asosiy mineral tarkibini o'rtacha foizda (%) kvars – 56,5; dala shpati – 0,65; fosforit – 31,1; karbonat – 1,45; loysimon minerallar – 6,3; temir gidroksidi – 3,3; sfen, apatit, turmalin, sirkon, uglerodli moddalar, pirit va boshqalar tashkil etadi.

#### XULOSA

Hozirgi vaqtgacha bir qator o'zbek olimlari tomonidan Qizilqum fosforitlari asosida turli fosforli o'g'itlar olish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari bajarilgan. Ularning tarkibida mineral o'g'it olish uchun talab darajasida  $\text{P}_2\text{O}_5$  mavjudligi ilmiy asoslangan. Hozirgi kunda ushbu fosforit konidan ishlab chiqarilayotgan fosfaritlar qishloq xo'jaligi o'g'itlari va chorvachilik uchun ozuqaviy qo'shimchalar ishlab chiqarish uchun yetarli emas. Bu maqsadlarga erishish uchun yangi turdag'i konlarni toppish va uning minerallarini chuqur taxlii qilish asosiy maqsadlardan biri bo'lib qolmoqda.

Surxondaryo viloyati Sarosiyon tumanidagi Gulioib fosforit tarkibida talab darajasida P<sub>2</sub>O<sub>5</sub> mavjud bo'lmasa xam ularni turli xil tarkibida mineral moddalar mavjud bo'lgan xomashyolar bilan modifikatsiyalab, yangi aralash turdag'i o'g'it olish mumkinligi ushbu tadqiqot isbotlandi.

### ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Cisse L., Mrabet T. World Rnosrnate Production: Overview and Prospects // Rnosrnorus Research Bulletin. – Tokyo. – 2004. – vol. 15. – PP. 21-25.
2. Старостин В. И. Минерально-сырьевые ресурсы мира в третьем тысячелетии // Соросовский образовательный журнал. – Москва. – 2001. – № 6. – С. 48-55
3. Набиев М.Н. Азотнокислотная переработка фосфоритов. В 2-х т.-Ташкент.:Изд-во ФАН УзССР. – 1976. – Том.1. – 21 с.
4. Беглов Б.М., Намазов Ш. С., Мирзакулов Х.Ч., Умаров Т.Ж. // Активация природного фосфатного сырья. – Ташкент – Ургенч, Изд-во «Хорезм». – 1999. – 112 с.
5. Xodjamqulov, S. Z., AP, Hamidov, & Tursunov, S. A. (2023). Mahalliy fosfaritlar asosida olingan ekstraktsion fosfat kislotasini bug'latish yo'li orqali konsentrash. Journal of Universal Science Research, 1(2), 75-79